

**BOSHLANG’ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA BILISH FAOLIYATIGA
MUNOSABAT MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISH****Korayeva Latifa Zarifovna***Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, (PhD)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o‘quvchilarida bilish faoliyatiga doir munosabat motivltini shakllantirish omillari, ularni bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish yo‘llari va usullari hamda, ushbu omillar va ularning ta’limdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘z: *boshlang’ich ta’lim, bilish, faoliyat, motiv, qiziqish, interaktiv ta’lim, his-tuyg‘u, samaradorlik, munosabat.*

**ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВОВ ОТНОШЕНИЯ К ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Аннотация: *В статье рассматриваются факторы, формирующие мотивационное отношение к познавательной деятельности у учащихся младших классов, пути и методы повышения их интереса к знаниям, а также эти факторы и их значение в образовании.*

Ключевые слова: *начальное образование, знания, активность, мотивация, интерес, интерактивное обучение, эмоции, эффективность, отношение.*

**FORMING ATTITUDE MOTIVES TOWARDS COGNITIVE ACTIVITY IN
PRIMARY GRADE STUDENTS**

Annotation: *This article discusses the factors shaping the attitude motivation towards cognitive activity in primary school students, ways and methods of increasing their interest in knowledge, as well as these factors and their significance in education.*

Keywords: *primary education, knowledge, activity, motive, interest, interactive education, emotion, effectiveness, attitude.*

Kirish. Bilish faoliyati – insonning ma’lumotlarni qabul qilish, ularni o‘zlashtirish, tahlil qilish va ilmiy yangiliklarga erishish jarayonidir. Boshlang’ich sinfda o‘quvchilarning bilish faoliyatiga bo‘lgan munosabatlari va motivatsiyasini shakllantirish, ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ta’limning samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida motivatsiya — o'quvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyojlari, qiziqishlari, harakatga undashiga sabab bo'lgan omillarning majmuasidir.

O'qituvchining motivatsiyani shakllantirishdagi ahamiyati, uning o'quvchiga bo'lgan munosabati va pedagogik mahoratlari ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan. Axmedova (2007) va Vaysman (2013) kabi ilmiy ishlarda ta'kidlanganidek, o'qituvchining o'z darslarida o'quvchilarga qiziqarli va tushunarli usullar bilan taqdim etishi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi motivatsiyani shakllantirishda muhim omildir. Axmedova (2007) o'qituvchining o'quvchiga nisbatan yumshoq va ishonchli munosabati, ularning qobiliyatlariga ishongan holda dars o'tkazish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Bundan kelib chiqib, o'qituvchilarning pedagogik mahoratlari va o'quvchilarga munosabatlari ularda bilishga bo'lgan ishtiyoqni oshirishga yordam beradi.

O'qituvchining o'quvchilar uchun to'g'ri va samarali o'quv materiallarini tanlashi, ularning qiziqishlari va imkoniyatlariga mos kelishi motivatsiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun faqat yozish va o'qish emas, balki turli o'yinlar, testlar, interaktiv ta'lim usullari va tajribaga asoslangan mashqlar ham muhim. Bu usullar o'quvchilarga bilimni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi va ularda bilimga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi.

Oila va atrof muxiti o'quvchilarda bilish faoliyatiga bo'lgan munosabat shakllanishida asosiy omil bo'ladi. Agar oilada bilimga bo'lgan ehtiyoj va qiziqish o'zlashtirilsa, o'quvchida o'ziga xos motivatsiya shakllanadi. Shuningdek, ota-onalarning yordami, ularning ta'limga bo'lgan hurmati va o'quvchilarga ko'rsatgan qiziqishlari o'qishga bo'lgan muhabbatni oshiradi. Oiladagi o'qishga bo'lgan katta diqqat va his-tuyg'ular o'quvchining motivatsiyasini musbat tomonga o'zgartiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari ham motivatsiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Agar o'quvchi o'ziga qiziqarli bo'lgan predmetlar va mavzular bilan shug'ullansa, uning bilimga bo'lgan muhabbati oshadi. Shaxsiy qiziqishlar, qobiliyatlar va istaklar o'quvchiga bilimga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Ushbu shaxsiy omillarni inobatga olish, o'quvchiga o'zining individual xususan qobiliyatlariga asoslanib ishlash imkonini beradi.

O'quvchilarning har qanday kichik muvaffaqiyatiga rag'bat berish ulardagi motivatsiyani oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga sovrinlar, maqtovlar, ishlarning samarali natijalarini ko'rsatish orqali rag'batlantirish ularning bilish faoliyatiga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. SHuningdek, har bir o'quvchini tartibga solish va muvaffaqiyatlarga erishish uchun ularni ijobiy ko'rsatkichlarga erishishga undash muhimdir.

O'quvchi o'zi oladigan bilimga va uning amalga oshirishga qiziqishni sezishi kerak. Misol uchun, agar o'quvchi darslarning foydali va kundalik hayotdagi ahamiyatini ko'rsa,

unda bilishga bo‘lgan ichki motivatsiya shakllanadi. Agar o‘quvchi yangi bilimlarni o‘rganishda aniq natijalarga erishsa, bu uning o‘z-o‘zini ishonchini oshiradi va kelajakda bilish faoliyatiga bo‘lgan munosibati ijobiy bo‘ladi.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. О‘quv faolligiga munosabat motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi yo‘nalish tanlab olindi va shu yo‘nalishlar tadqiqotning umumiy maqsadiga singdirildi: birinchi yo‘nalishda maktabga munosabat motivatsiyasini o‘rganish, ikkinchi yo‘nalishda o‘quv komponentlarini shakllanganlik darajalarini o‘rganish, uchinchi yo‘nalishda esa shaxs yo‘nalganligini o‘rganish orqali o‘quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini tadqiq qilishga qaratilgan usullar majmuasi tanlab olindi va uni amaliyotga tatbiq etish vazifasi qo‘yildi.

Zero, har bir usul asosida qayta ishlangan ma‘lumotlarni tadqiq qilishda qo‘shimcha yordamchi usullar orqali munosabatlarning beqarorligi yoki barqarorligi ijtimoiy keng yoki torligi, o‘quv faolligi haqidagi tasavvurlarning mavjud yoki mavjud emasligi, o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga mas‘uliyat bilan yoki yuzaki qarashlari kabi qator mezonlar inobatga olinib, shartli ravishda munosabat motivatsiyasi deb ataluvchi shkalaga kiritiladi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, mazkur komponentlar barcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ham bir xil darajada namoyon etilmaydi. YA’ni, qaysidir o‘quvchilarda bir komponent ishtiroki ko‘proq bo‘lsa, boshqa bir komponent ishtiroki kamroq bo‘lishi tabiiy. SHu boisdan o‘quv faolligini tahlil qilishda mazkur holatlarga aniqliklar kiritish uchun taqdim etilayotgan komponentlar ishtirokini shartli ravishda 3 darajaga (yoki mezonga) bo‘lib tahlil qilishni lozim topdik. YA’ni

“A” mezon yuqori daraja – o‘quv faolligiga nisbatan faol – ijobiy munosabat motivatsiyasi ishtirokini belgilaydi.

“B” – o‘rta daraja – ya’ni ijobiy munosabat motivatsiya ko‘rsatkichlari miqdoridan darak beradi.

“V – quyi daraja – ya’ni “indefferent” munosabat motivatsiyasi miqdoridan dalolat beradi.

Munosabat tizimi shkalasida o‘quvchilar faoliyatida shakllanayotgan o‘quv faolligini tanlash jarayoniga bo‘lgan «faol-ijobiy», «ijobiy», «indifferent» munosabatlar motivatsiyasining kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar xarakteriga mos o‘rtacha umumiy, qiyosiy-tipik ko‘rsatkichlari ko‘lami kiritiladi va bu esa tadqiqot maqsadiga mos ijtimoiy psixologik mezonlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Shaxs umumiy yo‘nalganligiga asoslangan faol-ijobiy munosabat motivatsiyasi (FIMM) ko‘rsatkichlarining umumiy yo‘nalganlik mezonlari bo‘yicha tutgan o‘rinlari.

| № | daraja mezonlar | 2-sinf n ₁ = 1000 | | | 4-sinf n ₂ = 1000 | | |
|---|----------------------------|---------------------------------|---|---|---------------------------------|---|---|
| | | A | B | V | A | B | V |
| 1 | O‘z-o‘ziga yo‘nalganlik | 2 | 1 | 3 | 1 | 2 | 3 |
| 2 | Muloqotga yo‘nalganlik | 1 | 2 | 3 | 2 | 1 | 3 |
| 3 | Faoliyatga yo‘nalganlik | 3 | 2 | 1 | 2 | 1 | 3 |

Ikkinchi va to‘rtinchi sinf o‘quvchilari orasida shaxs umumiy yo‘nalganligi asosida shakllangan F.I.M.M darajalarining umumiy ko‘rsatkichlar diapozonidagi o‘rinlari

| | o‘rinlar mezonlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | |
|---------------|------------------------------|---|---|---|---|---|---|---|--|
| 1 | O‘z-o‘ziga yo‘nalganligi “B” | ■ | | | | | | | |
| 2 | Muloqotga yo‘nalganlik “A” | | ■ | | | | | | |
| 3 | Faoliyatga yo‘nalganlik “V” | | | ■ | | | | | |
| 4 | Faoliyatga yo‘nalganlik “B” | | | | ■ | | | | |
| 5 | Muloqotga yo‘nalganlik “B” | | | | | ■ | | | |
| 6 | O‘z-o‘ziga yo‘nalganlik “A” | | | | | | ■ | | |
| 7 | Faoliyatga yo‘nalganlik “A” | | | | | | | ■ | |
| 8 | Muloqotga yo‘nalganlik “V” | | | | | | | | |
| 9 | O‘z-o‘ziga yo‘nalganlik “V” | | | | | | | | |
| 4 sinf | | | | | | | | | |
| 1 | O‘z-o‘ziga yo‘nalganlik “A” | ■ | | | | | | | |
| 2 | Muloqotga yo‘nalganlik “B” | | ■ | | | | | | |
| 3 | Faoliyatga yo‘nalganlik “B” | | | ■ | | | | | |
| 4 | O‘z-o‘ziga yo‘nalganlik “B” | | | | ■ | | | | |
| 5 | Muloqotga yo‘nalganlik “A” | | | | | ■ | | | |
| 6 | Faoliyatga yo‘nalganlik “A” | | | | | | ■ | | |
| 7 | Muloqotga yo‘nalganlik “V” | | | | | | | ■ | |

| | | | | | | | | |
|---|-----------------------------|--|--|--|--|--|--|--|
| 8 | Faoliyatga yo‘nalganlik “V” | | | | | | | |
| 9 | O‘z-o‘ziga yo‘nalganlik “V” | | | | | | | |


Izoh:

“A” “yuqori” – daraja ko‘rsatkichlari




“B” “o‘rta” – daraja ko‘rsatkichlari

“V” “quyi” – daraja ko‘rsatkichlari

Qo‘lga kiritilgan empirik ma‘lumotlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘quv faolligiga bo‘lgan munosabat tizimi (faol-ijobiy, ijobiy, indifferent) motivatsiyasining shakllanishi va uning u yoki bu darajada namoyon etilishi o‘quvchi shaxsiga, psixologik ta‘sir etuvchi «qiziqishlar»ga, «shaxs yo‘nalganligi» ga, «ma‘lum darajadagi o‘quv ustanovkalari»ga va «qadriyatlar»ga bevosita bog‘liqdir. Aniqrog‘i, empirik ma‘lumotlar tahliliga asoslanib shuni aytish mumkinki, mazkur sifatlarning o‘quvchi shaxsida beqaror yoki barqaror holda tarkib topishiga qarab, o‘quvchining o‘quv jarayoniga nisbatan faol-ijobiy, ijobiy, yoxud indifferent munosabatlarining ifoda etilayotganligi haqida tasavvur hosil qilish mumkin.



Shaxs umumiy yo‘nalganligi doirasida shakllangan ko‘rsatkichlarning F.I.M.M. diagramma ko‘rinishi 2 sinf.

| | |
|---|---|
| Shartli belgilar:  - A yuqori  - B o'rta  - V quyi | I - O'z- o'ziga yo'nalganlik II - muloqotga yo'nalganlik III - faoliyatga yo'nalganlik |
|---|---|

Maxsus keltirilgan raqamlar shundan dalolat beradiki, o'quvchi shaxsining umumiy yo'nalganlik tarkibiga kiruvchi o'z-o'ziga yo'nalganlik (a), odamlarga yo'nalganlik (b) va faoliyatga yo'nalganlik (v) kabi motivlari asosida yotuvchi o'quv jarayoniga munosabatlar tizimi ko'rsatkichlari haqiqatdan ham turli darajalarda shakllanganligi bilan alohida ajralib turadi.

Xulosa o'quv faolligiga munosabat tizimining shakllanishi o'ziga xos individual, hududiy va yosh xususiyatlariga ega bo'lib, uning dinamikasi ma'lum ijtimoiy psixologik omillar asosida belgilanishi va baholanishi hamda bu jarayon o'quvchi shaxsining ma'lum darajadagi qiziqishlari, o'quv komponentlari, umumiy yo'nalganligi, kabi psixologik omillar asosida qurilishi va namoyon etilishi mumkinligi empirik ma'lumotlarda yordamida asoslab berildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabat va motivatsiyani shakllantirishda bir qator omillar, jumladan, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlari, ta'lim metodikasi, oila va atrof-muxit, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, rag'batlantirish va kognitiv xis-tuyg'ular muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun, ushbu omillarni birgalikda qo'llash orqali o'quvchilarda bilish faoliyatiga bo'lgan munosabatni shakllantirish va ularni ta'limga rag'batlantirish mumkin.

O'quv faolligi komponentlarining namoyon etilishi, asosan o'quv materialini o'zlashtirish va bu jarayonda astoyidil kirishgan holda o'zini o'quvchi sifatida his etish, o'z-o'zini adekvat baholash, o'zini-o'zi boshqarish, o'z-o'zini faoliyatga safarbar qilish kabi xislatlar bilan bevosita bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi. O'rganilgan har bir komponent, o'quvchi shaxsining ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va ularni aqliy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari. MT Axmedova - Integration of science, education and practice ..., 2022
2. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. Darslik. Toshkent - "Universitet" – 2002
3. Vaysman, V. A . Psixologiya motivatsii.2013.

4. Mamajonov, T. Boshlang'ich ta'limning pedagogik asoslari. 2008.
5. Barotov SH.R. Boshlang'ich ta'lim tizimida psixologik xizmat muammosi «Boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari» Resp. ilmiy-amal. anjum. tezlari to'plami.- Buxoro, 1995. 15-21-b.